

Selevko G.K. (2004) kompetentsiyani oldinga qo'yilgan vazifalarni uddalashga nisbatan bitiruvchining tayyorligini o'zida ifodalaydigan ta'lim natijasi atrof-muhitni o'zgartirish bo'yicha maqsadlarni qo'yish hamda ularga erishish imkoniyatini beradigan bilimlar, ko'nikmalar va malakalar to'plami, shaxsning ta'lim olish, sotsializatsiya jarayonida o'zlashtirilgan hamda faoliyatda mustaqil va muvaffaqiyatli ishtirok etishga yo'naltirilgan bilimlar va tajribaga asoslangan faoliyatga nisbatan umumiy qobiliyat va tayyorgarlikda yuzaga chiqadigan integral xususiyati sifatida qaraydi. Shu bilan birga, muallifning fikricha, kompetentsiya va kompetentlik tushunchalari bilim, ko'nikma va malaka tushunchalaridan ancha keng, chunki ular shaxsning yo'nalganligi, stereotiplarni yengib o'tish qobiliyati, muammoni his etish, uzoqni ko'ra bilish, tafakkurning moslashuvchanligi, xarakterni o'z ichiga oladi [2].

Kompetentlik (lot. "competens" – mos keluvchi, mos tushuvchi, qobiliyatli, biluvchi) – inson tomonidan mos bo'lgan kompetentsiyaning egallanishi bo'lib, u o'zida kompetentsiyaga va uning faoliyat predmetiga nisbatan shaxsiy munosabatni mo'jassamlashtiradi. Kompetentlik faoliyat xarakteristikasi sifatida ta'lim sub'ektining faoliyatida egallangan bilimlar, ko'nikmalar, malakalarni hayotga tatbiq qilishga nisbatan qobiliyati va tayyorgarligini belgilaydi. Kompetentlik - bu shaxsning shakllangan sifati va berilgan sohada faoliyatning minimal tajribasidir [4,2]. Binobarin, boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning adabiy- nutqiy kompetentsiyasi (tinglab tushunish, fikrni og'zaki bayon qilish, o'qish, fikrni yozma bayon qilish) bola shaxsining integrativ sifati bo'lib, kasbiy faoliyatning ma'lum turini amalga oshirish uchun yetarli bo'ladigan zaruriy bilim, ko'nikma va malakalar tizimini o'zida mo'jassamlashtiradi. Demak, boshlang'ich sinf o'quvchilarining adabiy-nutqiy kompetentsiyasi quyidagi darajalarda baholanadi:

Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchisi boshlang'ich darajada ixcham matn asosida yaratilgan audiomatn, videotasvirlarni tinglab tushuna oladi; ertak, topishmoq, maqol, tez aytish, rivoyat, hikoyat, masal, xalq qo'shiqlari, hikoya, she'rlarni o'qib tushunadi va mazmunini qayta so'zlab bera oladi; yozma va bosma harflarni, ular ifodalaydigan tovushlarni to'g'ri talaffuz eta oladi; maktab kutubxonasidan foydalana oladi.

Bundan tashqari qo'shimcha asar qahramonlari, tabiat tasviri haqida kichik ijodiy matn yoza oladi.

Badiiy asarni tahlil qilish kompetentsiyasi:

Umumiy o'rta talimning boshlang'ich darajasida o'rganilgan asarlarning nomi, mazmuni va qahramonlarini ajrata oladi va ularga baho bera oladi;

matndagi so'z ma'nolarini izohlay oladi.

o'qilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera oladi.

Bunga qo'shimcha ravishda matndagi so'z birikmalarining ma'nolarini izohlay oladi. Demak, boshlang'ich sinf o'quvchisining layoqatlari, qiziqish va qobiliyatlari, bilimdonlik darajasini o'rganish uchun tashxislashdan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Tashxis-diagnostika (yunon tilida «dia»- shaffof, «gnosiss»-bilim degan ma'noni bildiradi) -

o'rganilayotgan ob'ekt yoki jarayon to'g'risida aniq ma'lumot olishning umumiy vositasi bo'lib xizmat qiladi [5, 4].

Tashxis didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilashdir. Unda o'quvchilarning imkoniyatlari, ularning faoliyatlari va xulqlari, motivlari, o'quv materialining xususiyati, uning amaliy ahamiyati, dars tuzilishi, yangi axborotni o'zlashtirish, mustahkamlash va tizimlashtirish, bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish hamda tuzatish kabi holatlar namoyon bo'ladi. Bu jarayonni tashxis qilish – bu didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash demakdir.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, didaktik va tarbiyaviy jarayonlarda pedagogik diagnostika - pedagogik omillarning samaradorligini oshirish maqsadida shaxsga axloqiy, intellektual, estetik, jismoniy, sotsiologik, ekologik va ijtimoiy-psixologik ta'sir ko'rsatish uchun xizmat qiladi. Ta'lim oluvchilarning shaxsiy-xarakterologik sifatlarini aniqlash metodikasini egallash, uni pedagogik amaliyotga tatbiq etish, kasbiy-pedagogik tayyorgarlikning muhim unsurlaridan biridir. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish, baholash tashxislashning zaruriy tarkibiy qismlari sanaladi.

Ta'lim jarayonida nazorat va hisobga olish esa, ularning vazifalaridir. Ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismlaridan biri – nazorat va hisobga olishdir. Bu tushunchalar o'ziga xos mohiyat va xususiyatlarga ega. O'qituvchi nazorat va hisobga olishni to'g'ri tashkil etsa, ta'lim jarayonining samaradorligi ortadi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchining o'quv materiallarini o'zlashtirish darajasini aniqlab borishi lozim.

Tekshirishning maqsadi nafaqat o'quvchining bilim darajasi, sifati, balki uning o'quv mehnati hajmini ham aniqlashdan iborat.

#### **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:**

1. “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo’llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Prezident Qarori (PQ–4963-son, 25. 01. 2021 y. )
2. Finlyandiyaning 100ta ijtimoiy innovatsiyasi “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent – 2019
3. “Umumiy psixologiya” E. G’oziyev. Toshkent “Universitet” nashriyoti, 2002.
4. Dobro’nin N. F. O selektivnosti i dinamike vnimaniya. -Vopr. psixol. 1975, № 2. 2002
5. Internet ma’lumotlari

**MAKTABGACHA TA'LIM TA'LIM TASHKILOTI  
TARBIYACHINING O'YIN TA'LIM STRATEGIYASI**

**Mamatova Husnora Eshquvatovna**

*Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor  
va mutaxassislarini qayta tayyorlash va  
ularning malakasini oshirish instituti  
katta o'qtuvchisi*

**Annotasiya:** *O'yin faoliyati bola hayotida katta ahamiyatga ega. Maktabgacha yoshdagi bola shaxsiyati, ahloqiy-irodaviy sifatlarini fazilatlarini shakllantirishda samarali usuldir. O'yin orqali ta'lim berishda atrof-olam ta'sir etish ehtiyoji ro'yobga chiqadi.*

**Kalit so'z:** *Strategiya, ijodiy, syujetli, faoliyat, tarbiya, o'yin, ehtiyoj, vazifa, kashf, maroqli, imkoniyat, usul*

**Абстрактный:** *Игра очень важна в жизни ребенка. Это эффективный способ формирования личности, нравственных и волевых качеств дошкольника. В обучении через игры реализуется необходимость воздействия на окружающую среду.*

**Ключевое слово:** *Стратегия, творчество, сюжет, деятельность, образование, игра, потребность, задача, открытие, развлечение, возможность, метод*

**Abstract:** *Play is very important in a child's life. It is an effective way to form the personality, moral and voluntary qualities of a preschool child. In teaching through games, the need to influence the environment is realized.*

**Key word:** *Strategy, creative, plot, activity, education, game, need, task, discovery, fun, opportunity, method*

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligi maktabgacha ta'lim muhim turi bu o'yin faoliyatidir. O'yin faoliyati bola hayotida katta ahamiyatga ega. Maktabgacha yoshdagi bola shaxsiyati, ahloqiy-irodaviy sifatlarini fazilatlarini shakllantirishda samarali usuldir. O'yin orqali ta'lim berishda atrof-olam ta'sir etish ehtiyoji ro'yobga chiqadi. Bola uchun o'yin qiziqarli mashg'ulot hisoblanadi. Bola tarbiyachisi ya'ni ta'lim beruvchi o'yin faoliyati orqali biror ma'lumotni yoki tatqiqotni olib borishni yo'lga qo'yishi lozim. Har qanday o'yinning o'z maqsadi bor. Buni to'g'ri yo'lga qo'yish ta'lim beruvchining vazifasi hisoblanadi. Bola uchun o'yin- o'zini ko'rsatish va namoyon qilish yo'li. O'yinda bola o'z o'zi istagan qahramonga aylanadi; mehribon sexrgar, jasur jangchi uchuvchi-fazogir, sayyoh..... va hokozo. O'yinda bola o'zi hohlagan joyda bo'ladi; oyda, dengiz tubida, maktabda, savdo rastasida, o'rmonda saroyda. O'yin bola vaqtini bir lahzaga to'htatish, uni qaytarishva yana ko'p marotaba takrorlash imkonini beradi. Har bir bolalaning o'z dunyosi bor. Lek u tengdoshlari qatoriga kirib kelganida o'zi uchun boshqa bolalar dunyosini "Kashf" etadi.

Bu juda qiziqarli va maroqli jarayondir, ammo boshqa insonni tushunish va dunyosini qabul qilish, ichki olamni ochish bola uchun juda murakkab. O'yinda bola shaxsining barcha qirralari ochiladi, ruhiyatida yangi, yanada yuqori rivojlanish bosqichiga o'tishga tayyorlaydigan sezilarli o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bu bilan psixologlar maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati sifatida o'yinning ulkan tarbiyaviy imkoniyatlari yuqoriligini aytishadi.

Maktabgacha yoshidagi bolalarni o'qitish va tarbiyalash bolaning ijtimoiy, hissiy, kognitiv va jismoniy ehtiyozlari kompleks rivojlantirishga qaratilgan, bunga unda umri davomida mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglari maktabgacha ta'lim maqsadlarini amalga oshirishda asosiy rolni o'ynaydi, shuning uchun ularga ko'nikmalarini rivojlantirish va o'z xizmatlarini taqdim qilish uchun keng imkoniyatlar yaratish, ularni qo'llab quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston hukumati 2017- yildan kichik yoshdagi bolalarni sifatli o'qitish va tarbiya qilishga katta e'tibor qaratmoqda. Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etilgan vaqtdan beri 2030 yigacha bo'lgan davrda Barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora va tadbirlari doirasida qulay siyosiy shart –sharoitlar hamda tizimli komponentlarni yaratish bo'yicha qator salmoqli ishlar olib borilmoqda. O'zbekistonda Yunisef vakolatxonasi tomonidan mazkur islohatlar doirasida Maktabgacha ta'lim vazirligi bilan yaqindan xamkorlik o'rnatilgan, 2018 – yilda YUNESIF Maktabgacha ta'lim vazirligiga ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarini qayta ko'rib chiqishda texnik jihatdan ko'maklashdi va bolalarning rivojlanish davrlari aniq ishlab chiqishiga urg'u berildi, Shuningdek, YUNESIF bolalarning har tamonlama rivojlanishiga qaratilgan yangi "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim tashkilotining davlat o'quv dasturini ishlab chiqishda amaliy yordam ko'rsatdi. Yangi davlat o'quv dasturi va bolaning rivojlanishiga qo'yilgan maqsadlarni sifatli amalga oshirilishini ta'minlash, jumladan, bolani maktabga tayyorlash uchun ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlaripedaoglarini jalb etish lozim. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturiga ko'ra, maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim faoliyatini tashkil etishning eng muhim tamoyili-o'yin orqali maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni o'qitish va rivojlantirishdir.

O'yin maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiy hayotining muhim va yetakchi shakli sanaladi. Unda ular o'z hohishiga ko'ra birlashadi, mustaqil harakatlanadi, o'z g'oya istaklarini amalga oshiradi, dunyoni anglaydi. Mustaqil o'yin faoliyati bolaning jismoniy va ruhiy rivojlanishi, ahloqiy-irodaviy fazilatlarining shakllanishi, ijodiy qirralarining ochilishiga zamin yaratadi. Bolalarning o'yin faoliyatini rivojlanish sohasidagi fikr mulohazalar ko'plab olimlar tomonidan o'rganishlari (L.S.Vigotskiy, D.B.Elkonin, A.P. Usova va boshqalar) asosida metodik qo'llanma ham yaratilgan. Pedagoglar maktabgacha ta'lim tashkilotida o'yin faoliyatini o'tkazish bo'yicha metodik tafsiyalarni bajarayotib, bolalarni to'laqonli entelektual va shaxsiy rivojlanishi uchun qoidalari bor syujetli rolli, didaktik va harakatli o'yinlar, sahnalashtirilgan o'yinlar hamda o'yinchoqlardan va ularning